O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son[4] Farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yangilangan va maqsadli ko‘rsatkichlar qayta ko‘rib chiqilgan. Unda turizm sohasini 2030-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish, xorijiy turistlar sonini 20 million nafargacha yetkazish, turizm klasterlari sonini 25 taga yetkazish va mehmon o‘rinlari sonini 240 mingtaga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bu ko‘rsatkichlar Qizilqumda xalqaro turizmni rivojlantirishni milliy strategiya bilan bog‘lash imkonini beradi.

Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonga 11,7 million nafar chet el fuqarosi turizm maqsadida tashrif buyurgan va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 46,8 foizga oshgan. Bu tendensiya mamlakatda turistik talab kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Shuning uchun Navoiy viloyatida Qizilqum cho‘llari asosida yangi xalqaro turizm yo‘nalishlarini tashkil etish iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanadi[5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, resurslarni inventarizatsiya qilish, SWOT-tahlil va strategik rejalashtirish usullaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda Qizilqum cho‘llarining tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va rekreatsion resurslari o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda Navoiy viloyatini 2022–2026-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi turizm ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun ustuvor strategik yo‘nalishlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda Qizilqum cho‘llaridagi turistik imkoniyatlar besh yo‘nalish bo‘yicha baholandi: tabiiy resurslar, madaniy-arxeologik meros, transport va infratuzilma, xizmatlar bozori, raqamli targ‘ib va xalqaro marketing.

Tahlilda asosiy ma’lumotlar R. Hayitboev monografiyasi, Navoiy viloyatini rivojlantirishga oid hukumat qarori, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari va Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga tayangan holda tizimlashtirildi. Maqoladagi jadvallar va diagramma ushbu manbalar asosida muallif tomonidan qayta ishlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qizilqum cho‘llari Navoiy viloyatining turistik imijini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Cho‘l hududlari odatda iqlim sharoiti og‘ir, aholi punktlari siyrak va infratuzilma cheklangan makon sifatida qabul qilinadi. Biroq, xalqaro turizm tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan noodatiy landshaft, biologik xilma-xillik, qadimiy yo‘llar, etnik madaniyat va kam o‘zlashtirilgan hududlar yuqori qiymatli turistik mahsulotga aylanishi mumkin. Navoiy viloyatidagi Sarmishsoy petrogliflari, Oqtog‘ va Qarnabcho‘l davlat buyurtmaxonalari, To‘dako‘l atrofi, Qizilqum landshaftlari va cho‘l aholisining etnografik merosi ushbu salohiyatning asosiy tarkibiy qismlaridir.

R. Hayitboev monografiyasida cho‘llardagi turistik resurslar arxeologiya, ziyorat, ekoturizm, ovchilik, sardobalar, milliy mahsulotlar va milliy o‘yinlar kabi yo‘nalishlarga ajratiladi[6]. Bu tasnif Qizilqum turizmini bir yo‘nalish bilan cheklamasdan, kompleks mahsulotga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi. Masalan, xalqaro turist uchun “Sarmishsoy – Qizilqum safarisi – yurt lageri – To‘dako‘l dam olish zonasi – Nurota ziyorat yo‘nalishi” kabi birlashgan marshrut yuqori qiymatli turpaket bo‘lishi mumkin (1-jadval).

2 Hayitboev R. O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. - Samarqand: SamISI, 2018. - B. 11-13.
3 https://lex.uz/uz/docs/-5988219
4 https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
5 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda O‘zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan. - 16.01.2026. Elektron manba: stat.uz.
6 Hayitboev R. O‘zbekistonning cho‘llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. - Samarqand: SamISI, 2018. - B. 43-47.

1-jadval. Qizilqum cho'llarida xalqaro turizm uchun asosiy resurslar[7]

| Resurs yoki obyekt | Joylashuvi | Turizm turi | Xalqaro ahamiyati | Rivojlantirish chorasi |
|---|---|---|---|---|
| Sarmishsoy petrogliflari | Navoiy shahriga yaqin hudud | Arxeologik va madaniy turizm | 10 000 dan ortiq qoyatosh rasmlari, 7 ming yillik madaniy meros | YuNESKO brendingi, gidlar tayyorlash, AR-gid ilovasi |
| Qizilqum cho'l landshaftlari | Uchquduq, Tomdi, Nurota yo'nalishlari | Safariy, geoturizm, foto-turizm | Noodatiy tabiat va cho'l ekotizimi | Belgilangan marshrutlar, xavfsizlik punktlari |
| To'dako'l va Aydar-Arnasoy tizimi | Navoiy va Jizzax hududlari bilan bog'liq rekreatsion zona | Rekreatsion va ekoturizm | Suv havzalari va cho'l landshafti uyg'unligi | Dam olish zonalari, suv sporti, kemping |
| Oqtog' davlat buyurtmaxonasi | Nurota tumani | Ekoturizm | 15420 ga tabiiy kompleksni muhofaza qilish hududi | Ekotropa, kuzatuv maydonchalari, ekologik ta'lim |
| Qarnabcho'l davlat buyurtmaxonasi | Navoiy viloyati cho'l hududi | Bioturizm va ilmiy turizm | Yo'rg'a-tuvaloq va cho'l biokompleksini muhofaza qilish | Nazoratli turlar, qush kuzatish marshruti |
| Cho'l qishloqlari va ovullari | Tomdi, Uchquduq va Nurota atrofi | Etnoturizm va gastronomik turizm | Mahalliy hayot tarzi va milliy qadriyatlar | Oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik markazlari |

Sarmishsoy Qizilqum turizm mahsulotining markaziy brendi bo'lishi mumkin. Monografiyada Sarmish milliy bog'i hududida 10 000 dan ortiq qadimiy qoyatosh rasmlari mavjudligi, ulardan 650 tasi antik davrga oidligi va rasmlarda 35 tur hayvonlar tasvirlangani qayd etiladi[8]. Bu ma'lumot Sarmishsoyni faqat mahalliy ekskursiya obyekti emas, balki xalqaro arxeologik va madaniy turizm markazi sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorida xizmat ko'rsatish, transport, ichimlik suvi, elektr ta'minoti, "yashil hududlar", madaniyat muassasalari va turizm obyektlarini rivojlantirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlar belgilangan. Xususan, hujjatda 2022–2026-yillarda turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 84 ta obyekt, turistlar sonini 2 298,0 ming kishiga yetkazish, shundan xorijiy turistlar 80,6 ming kishi, ichki turizm hisobidan 2 217,4 ming kishi bo'lishi ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval. Navoiy viloyatida turizm va infratuzilma bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar[9]

| Ko'rsatkich | O'lchov birligi | Jami maqsad | Qizilqum turizmi uchun ahamiyati | Taklif etiladigan amaliy chora |
|---|---|---|---|---|
| Turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish | dona | 84 | Safariy, kemping, dam olish va etnoturizm punktlarini ko'paytirish | Sarmishsoy-To'dako'l-Qizilqum marshrutida 5-7 ta tayanch nuqta |
| Turistlar sonini oshirish | ming kishi | 2 298,00 | Navoiyning xalqaro va ichki bozordagi ulushini oshirish | Marketingni Qozog'iston, Rossiya, Turkiya, Xitoy va Evropa bozorlariga yo'naltirish |
| Xorijiy turistlar | ming kishi | 80,6 | Yuqori to'lov qobiliyatiga ega segmentni jalb qilish | Ingliz, rus va turk tillarida raqamli kontent va gidlar |
| Ichki turizm hisobidan tashriflar | ming kishi | 2 217,40 | Mahalliy talab orqali xizmatlar barqarorligini ta'minlash | Maktab, OTM va korporativ turlar dasturi |
| Transport xizmatlarini rivojlantirish | dona/km | 38 yo'nalish, 152 bekat, 235 km | Cho'l obyektlariga yetib borish imkoniyatini oshirish | Aeroport-vokzal-Sarmishsoy-To'dako'l shuttle xizmatlari |
| Yashil hududlarni ko'paytirish | gektar | 500 | Ekologik turizm va dam olish sifatini yaxshilash | Turistik maskanlar atrofida soyalangan dam olish maydonlari |

7 Manba: R. Hayitboev monografiyasi va Navoiy viloyatiga oid rasmiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.
8 Hayitboev R. O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. - Samarqand: SamISI, 2018. - B. 70-76.
9 Manba: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son qaroriga ilova asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Navoiy viloyati uchun belgilangan infratuzilma va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari Qizilqum turizmini rivojlantirishning amaliy bazasini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi “Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-161-son[10] qarorida Navoiy viloyati bo'yicha turizm infratuzilmasini rivojlantirishning aniq maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan bo'lib, u lar Qizilqum cho'llarida xalqaro turizmni tashkil etish uchun zarur bandlik, joylashtirish vositalari, turizm mahallalari va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan bevosita bog'liqdir (3-jadval).

3-jadval. Navoiy viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari[11]

| Ko'rsatkich | 2026-yil | 2027-yil | Qizilqum turizmi uchun mazmuni |
|---|---|---|---|
| Yaratiladigan jami ish o'rinlari (soni) | 550 | 620 | Cho'l turizmi yo'nalishida xizmatlar bazasi va bandlik kengayadi |
| Yangi ish o'rinlari (soni) | 200 | 250 | Mehmonxona, gidlik, ovqatlanish va transport xizmatlari uchun yangi bandlik shakllanadi |
| Sohadagi ish o'rinlarini soyadan chiqarish (soni) | 350 | 370 | Turizm xizmatlari rasmiylashadi va servis sifati nazorati kuchayadi |
| Loyiha boshqaruvi bo'yicha turizm obyektlari (soni) | 1 | 1 | Hududiy turizm loyihalarini boshqarish institutsional asosga ega bo'ladi |
| Yangi tashkil etiladigan joylashtirish vositalari (soni) | 18 | 27 | Kemping, mehmon uyi va mehmonxona fondini kengaytirish imkoniyati ortadi |
| Shundan: mehmonxona (soni) | 4 | 11 | Xalqaro turistlarni qabul qilish quvvati bosqichma-bosqich oshadi |
| Yangi turizm ko'chasi, turizm mahallasi (soni) | 3 | 2 | Mahalliy xizmatlar, etnoturizm va gastronomik turizm bir nuqtada jamlanadi |
| Yangi sanitariya-gigiyena shoxobchalari (soni) | 10 | 12 | Cho'l marshrutlarida qulaylik, xavfsizlik va xizmat sifati yaxshilanadi |

Ushbu ko'rsatkichlar Qizilqum turizmini umumiy g'oya darajasida emas, balki ish o'rinlari, joylashtirish vositalari, turizm mahallalari va sanitariya infratuzilmasi bilan bog'langan amaliy iqtisodiy loyiha sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval. Navoiy viloyatida turizm obyektlari faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish loyihalari[12]

| T/r | Tuman nomi | Turizm obyektlari yoki hududlari nomi | Muddat | Qizilqum turizmi uchun ahamiyati |
|---|---|---|---|---|
| 15 | Nurota tumani | Nurota tumanidagi 2 300 yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy suv o'tkazish inshooti - koriz va unga tutash hududlar | 2026-yil | Tarixiy-ma'rifiy, ziyorat va cho'l turizmini birlashtiruvchi yangi mahsulot yaratadi |
| 16 | Navbahor tumani | “Sarmishsoy” davlat muzey qo'riqxonasi (mumkin bo'lgan hududda turizm va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish) | 2027-yil | Sarmishsoy petrogliflarini xalqaro arxeologik va madaniy turizm brendiga aylantirish imkonini beradi |

Jadvaldagi loyihalar maqolada ilgari surilgan Sarmishsoy, Nurota va Qizilqum yo'nalishlarini strategik turizm marshrutiga aylantirish g'oyasini bevosita mustahkamlaydi. Ayniqsa, koriz inshootlari va Sarmishsoy hududi tarixiy meros, ekoturizm hamda xalqaro ekskursiya xizmatlarini birlashtiruvchi tayanch nuqtalar sifatida qaralishi mumkin (5-jadval).

10 https://lex.uz/uz/docs/-8167886
11 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son qarori, 1-ilova ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
12 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son qarori, 3-ilova ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5-jadval. 2026-2030-yillarda Navoiy viloyatida turistik loyihalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud yer uchastkalari[13]

| T/r | Loyiha nomi | Obyekt manzili | Maydoni | Amalga oshirish muddati |
|---|---|---|---|---|
| 15 | Ekoturizm va dam olish maskani hamda kapsula uylarini tashkil qilish | Nurota tumani, Chuya turizm mahallasi | 1,7 ga | 2026-2030 yillar |
| 16 | Kemping, dam olish va kapsula uylar hamda boshqa turizm xizmatlarini tashkil qilish | Xatirchi tumani, Langar turizm mahallasi | 100 ga | 2026-2030 yillar |

Mazkur yer uchastkalari Qizilqum cho'llarida yuqori qiymatli xalqaro turistik mahsulotlar — ekoturizm, kemping, kapsula uylar, cho'l rekreatsiyasi va etnoturizm xizmatlarini paketlashtirish uchun real hududiy baza mavjudligini ko'rsatadi.

Qizilqum cho'llarida xalqaro turizmni tashkil qilishda ekotizimga ehtiyotkor yondashuv muhim. Cho'l ekotizimi nozik bo'lgani uchun turistik oqim nazoratsiz oshirilsa, tabiiy resurslarga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli Sarmishsoy, Oqtog', Qarnabcho'l va To'dako'l yo'nalishlarida "tashrif limiti", chiqindini qayta olib chiqish talabi, ekologik gidlar va raqamli monitoring tizimi joriy etilishi lozim. Bu xalqaro turistlar uchun ham ishonchli xizmat muhitini yaratadi, ham tabiiy merosni saqlaydi[14] (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda turizm ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha maqsadli dinamikasi[15]

Diagrammadagi maqsadli dinamika Qizilqum turizmining ahamiyatini yanada oshiradi. Agar mamlakat 2030-yilgacha xorijiy turistlar sonini 20 million nafarga yetkazishni maqsad qilgan bo'lsa, yangi turistik mahsulotlar va yangi hududlar bozorga kiritilishi shart. Navoiy viloyatida cho'l turizmi aynan shunday yangi mahsulot sifatida milliy turizm portfelini kengaytirishi mumkin (6-jadval).

6-jadval. Qizilqum cho'llarida xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha SWOT-tahlil[16]

| Kuchli tomonlar | Kuchsiz tomonlar | Imkoniyatlar | Xavflar |
|---|---|---|---|
| Noyob cho'l landshafti va Sarmishsoy petrogliflari | Obyektlarga etib borish infratuzilmasi barcha nuqtalarda yetarli emas | Safariy, etnoturizm, geoturizm va foto-turizmni paketlashtirish | Cho'l ekotizimiga ortiqcha antropogen bosim |
| Navoiy shahri, aeroport va transport tarmog'i mavjudligi | Xalqaro darajada xizmat ko'rsatuvchi gidlar soni cheklangan | To'dako'l va Aydar-Arnasoy bilan birlashgan marshrutlar | Mavsumiylik va issiq iqlim ta'siri |
| Hukumat dasturlarida turizm infratuzilmasiga e'tibor berilgan | Marketing kontenti va raqamli bronlash tizimi yetarlicha kuchli emas | Xorijiy investitsiya, PPP va turizm klasterlari | Tabiiy va madaniy merosning noto'g'ri ekspluatatsiyasi |

13 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi PQ-161-son qarori, 3-ilova ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
14 Hayitboev R. O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. - Samarqand: SamISI, 2018. - B. 62-76.
15 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son Farmoni, 1-ilova, 48-bet ma'lumotlari asosida tuzilgan.
16 Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

SWOT-tahlil Qizilqum turizmining raqobat ustunligi noyob resurslarda, asosiy muammosi esa servis va raqamli marketingning yetarli darajada integratsiya qilinmaganida ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun strategiyaning markazida “resurs – infratuzilma – xizmat – raqamli savdo – ekologik muhofaza” zanjiri turishi lozim.

Navoiy viloyati uchun 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi ham belgilangan bo‘lib, unda Turizm qo‘mitasi, Milliy statistika qo‘mitasi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa idoralar ishtirok etishi ko‘rsatilgan. Demak, Qizilqum turizmini rivojlantirish faqat turizm tashkilotlarining vazifasi emas; u hududiy iqtisodiy siyosat, ekologiya, transport, raqamli texnologiyalar va madaniy meros muhofazasi bilan bog‘liq kompleks dastur bo‘lishi kerak (7-jadval).

7-jadval. Qizilqum cho‘llarida xalqaro turizmni tashkil qilishning strategik yo‘nalishlari[17]

| Strategik yo‘nalish | Mazmuni | Kutiladigan natija | Mas’ul ishtirokchilar |
|---|---|---|---|
| Qizilqum brendini yaratish | “Qizilqum Desert Experience” yoki “Qizilqum merosi va tabiati” kontseptsiyasi | Navoiy viloyatining xalqaro turistik imiji shakllanadi | Turizm qo‘mitasi, viloyat hokimligi, xususiy sektor |
| Marshrutlar tizimi | Sarmishsoy - Nurota - To‘dako‘l - Qizilqum safarisi - etnoovul marshruti | Turistning hududda qolish muddati va xarajati ortadi | Turoperatorlar, transport tashkilotlari |
| Infratuzilma va xavfsizlik | Yo‘l ko‘rsatkichlari, dam olish nuqtalari, suv, aloqa, tibbiy va qutqaruv xizmatlari | Xalqaro standartlarga mos xizmat muhiti yaratiladi | Hokimliklar, IIV, sog‘liqni saqlash, investorlar |
| Raqamli marketing | Virtual turlar, QR-gid, onlayn bronlash, Google/OTA integratsiyasi | Xorijiy bozorlarda ko‘rinish va sotuv oshadi | Turizm qo‘mitasi, IT-kompaniyalar |
| Ekoturizm standarti | Chiqindisiz turlar, tashrif limiti, ekologik gid, monitoring | Meros saqlanadi va barqaror turizm ta’minlanadi | Ekologiya qo‘mitasi, milliy parklar, mahalla |
| Kadrlar tayyorlash | Gid, instruktor, etnoxizmat, mehmon uylari uchun sertifikatlashtirilgan kurslar | Xizmat sifati va aholi daromadi oshadi | OTMlar, kasb-hunar markazlari, xususiy sektor |

Strategik yo‘nalishlardan eng muhimi — Qizilqumni mustaqil turizm brendiga aylantirishdir. Chunki xalqaro turistik bozorda hududning nomi, vizual imiji va mahsulot mazmuni aniq bo‘lmasa, marketing samarasi past bo‘ladi. Shu sababli Sarmishsoy, cho‘l safarisi, yurt lageri, milliy taomlar, tuya karvoni, qush kuzatish va foto-turizm yagona brend ostida birlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yo‘nalish — marshrutlarni paketlashtirish. Navoiy viloyatidagi alohida obyektlar faqat ekskursiya darajasida qolib ketmasligi kerak. Ular ikki-uch kunlik xalqaro turpaketga aylantirilsa, mehmonxona, transport, ovqatlanish, suvenir, gidlik va madaniy dasturlar bo‘yicha qo‘shimcha iqtisodiy samara yuzaga keladi.

Uchinchi yo‘nalish — raqamli xizmatlar. Xalqaro turist Qizilqum yo‘nalishini oldindan internetda ko‘rishi, marshrutni bron qilishi, xavfsizlik qoidalarini bilishi, elektron giddan foydalanishi va to‘lovni onlayn amalga oshirishi kerak.

To‘rtinchi yo‘nalish — ekologik xavfsizlik. Qizilqumda turizmni rivojlantirish tabiatni saqlash bilan birga olib borilishi shart. Xalqaro tajribada cho‘l turizmida suvdan tejamkor foydalanish, chiqindilarni saralash, transport harakatini cheklangan trassalarga yo‘naltirish, qo‘riqlanadigan hududlarga faqat gid bilan kirish kabi talablar qo‘llaniladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyati Qizilqum cho‘llarida xalqaro turizmni tashkil qilish va rivojlantirish mamlakat turizmini yangi bosqichga olib chiqishda muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qizilqum hududi arxeologik meros, cho‘l landshafti, biologik xilma-xillik, etnografik an’analar va rekreatsion imkoniyatlarni birlashtirgan noyob turistik makondir. Ayniqsa, Sarmishsoy petrogliflari, Oqtog‘ va Qarnabcho‘l buyurtmaxonalari, To‘dako‘l atrofi hamda cho‘l qishloqlari xalqaro turizm uchun yuqori salohiyatga ega.

Birinchi taklif: Qizilqum cho‘llari uchun alohida “Qizilqum Desert Tourism” brendi ishlab chiqilishi va u xalqaro ko‘rgazmalar, raqamli platformalar hamda turistik portallarda targ‘ib qilinishi lozim. Ikkinchi taklif: Sarmishsoy, Nurota, To‘dako‘l va cho‘l safarisini bog‘lovchi kompleks xalqaro marshrutlar yaratilishi kerak. Uchinchi taklif:

17 Manba: muallif tomonidan normativ hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan.

cho'l turizmi hududlarida xavfsizlik, suv, aloqa, sanitariya va dam olish nuqtalari bo'yicha minimal infratuzilma standarti joriy etilishi zarur.

To'rtinchi taklif: Sarmishsoy va Qizilqum yo'nalishlari uchun raqamli servislar — QR-gid, virtual tur, onlayn bronlash, elektron xarita va ko'p tilli audiogid tizimi ishga tushirilishi maqsadga muvofiq. Beshinchi taklif: mahalliy aholini turizmga jalb qilish maqsadida mehmon uylari, milliy taomlar, suvenirchilik, tuya karvoni, etnoovul va gidlik xizmatlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilishi lozim. Oltinchi taklif: Qizilqumda turizmni rivojlantirish tabiat muhofazasi bilan uyg'un olib borilib, qo'riqlanadigan hududlarda tashrif limiti va ekologik monitoring yo'lga qo'yilishi kerak.

Umuman olganda, Qizilqum cho'llarida xalqaro turizmni rivojlantirish Navoiy viloyati iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, xizmatlar sohasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududning xalqaro turistik imijini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon davlat dasturlari, xususiy investitsiyalar, mahalliy aholi tashabbusi va raqamli marketing birligida amalga oshirilsa, Qizilqum O'zbekistonning yangi xalqaro turizm brendiga aylanishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hayitboev R. O'zbekistonning cho'llarida turizmni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. - Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2018. - 144 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi "2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 217-son qarori // URL: https://lex.uz/uz/docs/-5988219
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan. - 16.01.2026. Elektron manba: stat.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/-5315060
7. O'zbekiston va Markaziy Osiyo tabiiy geografiyasi atlasi. - Toshkent, 2007.
8. UN Tourism. World Tourism Barometer. - Madrid: World Tourism Organization, 2024.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi "Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-161-son qarori // URL: https://lex.uz/uz/docs/-8167886

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz